


O'ZBEK BOLALAR FOLKLORINI TO'PLASH VA O'RGANISH VA NASHR QILISH MUAMMOLARI

Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman

MATERIALLARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KAFEDRASI**

**“O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORINI TO‘PLASH VA O‘RGANISH VA
NASHR QILISH MUAMMOLARI”**

**XALQARO ILMIIY-AMALIIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

**«ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ИЗУЧЕНИЯ И ПУБЛИКАЦИИ
УЗБЕКСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА»**

**МАТЕРИАЛЫ
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**“PROBLEMS OF COLLECTION, STUDY AND
PUBLISHING OF UZBEK CHILDREN'S FOLKLORE”**

**MATERIALS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE**

2023-yil 8-9-noyabr

BUXORO – 2023

personajlar qatoriga kiritadilar.[Басилов, 1970: 10] Darhaqiqat, xalqimiz orasida ularga sig‘inishning alohida an‘analari mavjud bo‘lib, hatto bizgacha saqlanib kelayotir.

O.Murodov Bibi Seshanba hamda Bibi Mushkulkushodni kult deb ko‘rsatadi va ularga ishonch O‘rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan keng yoyilganligini alohida ta‘kidlab o‘tadi.[Муродов, 1975: 105]

Matriarxat (onalik hukmronligi) davrida qabilalarda kekxa ayollar urug‘ga boshchilik qilgan va urug‘ning shomoni sifatida tan olingan. Hamma ularning maslahati va yo‘l-yo‘rig‘iga ko‘ra ish yuritgan. Xususan, qabiladagi qizlar ularning nazorati va ko‘magi ostida katta hayotga yo‘llanma olishgan. Shuning uchun o‘sha davrlarda shakllangan marosimlarda momo kultiga sig‘inish yetakchilik qiladi. Shomon murojaatlarida ham momo obraziga alohida urg‘u qaratiladi.

Bibi yoki momolar ruhiga sig‘inib o‘tkaziladigan marosimlarining kelib chiqish ildizlari qadimgi animistik tushunchalarga hamda magik, shomonistik qarashlarga borib taqaladi. Bundan esa ularning islomgacha shakllangan qadimiy marosimlardan biri ekanligi, faqat islom hukmronligi davrida ularning mazmuniga islomiy tushunchalar singdirilganligi va shu tarzda bu marosimlarning ma‘lum o‘zgarishga uchraganligi ravshanlashadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek folklorida Momo kultiga ishonchni ifoda etuvchi bir qator mifologik obrazlar mavjud bo‘lib, ular qadimgi ajdodlarimizning momo homiy ruh, ona ajdod kultiga mifologik ishonchini ifoda etadi. Momo kulti tushunchasida ayol ajdodlar ruhining homiyliги nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Басилов В.Н. Культ святых в исламе. – М.: Мысль, 1970. – С.10.
2. Фирштейн Л.А. О некоторых обычаях и поверьях, связанных с рождением и воспитанием ребенка у узбеков Южного Хорезма // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1978. – С. 190.
3. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2009.
4. Муродов О. Шаманский обрядовый фольклор у таджиков средней части долины Зерафшана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С.105.
5. Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – Б.79.
6. Наврўз: Наврўз билан боғлиқ қўшиқлар, афсоналар, одатлар ва иримлар / Тузувчилар: Т.Мирзаев, М.Жўраев. – Т.: Фан, 1992. – Б.29.
7. Қаюмов О.С. Ўзбек шомон маросимлари фольклори (спецификаси, генезиси, жанрлар таркиби ва поэтикаси): Филол. фан. доктори (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б.100.
8. Сухарева О.А. Духи момо (момохо) // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С.18-19.
9. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклорининг жанрий таркиби, генезиси ва бадийяти: Филол. фан. док-ри...дисс. – Т., 2005.

“ZARBULMASAL” ASARIDAGI MAQOLLAR TIZIMI

Qodirova Saodat Abduraximovna
Buxoro davlat universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi
s.a.qodirova@buxdu.uz

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada maqollar inson tushunchasi, hayotiy tajribasi va mulohazalarini umumlashtiribgina qolmay, balki haqiqatning obrazli ifodasi ekanligi hamda Gulxaniyning maqollardan obrazlar xarakterini ochishda mohirlik bilan foydalanganligi, badiiy-estetik qiymati ochib beriladi.*

Kalit soʻzlar: maqol, matal, ibora, qahramon, allegoriya, ogʻzaki va yozma adabiyot, obraz, xarakter, nusxa.

Annotation: In this article, proverbs not only summarize human understanding, life experiences and opinions, but also reveal the figurative expression of truth, and the skillful use of Gulhani's proverbs reveals the character of the heroes, as well as their artistic and aesthetic value.

Key words: proverb, saying, phrase, hero, allegory, oral and written literature, image, character, manuscript.

Аннотация: В данной статье пословицы не только обобщают человеческое понимание, жизненный опыт и мнения, но и раскрывают образное выражение истины, а умелое использование пословиц Гюльхани раскрывает характер героев, а также их художественную и эстетическую ценность.

Ключевые слова: пословица, поговорка, фраза, герой, аллегория, устная и письменная литература, образ, персонаж, рукопись.

Maqollar xalq donishmandligining yorqin namunasi, ular xalq ogʻzaki ijodining keng tarqalgan mustaqil janri sifatida oʻrganiladi. Hatto maqollarni xalq turmush tarziga oid odob-axloq qoidalari deyish mumkin. Xalqning asrlar davomida hayotiy tajribasidan oʻtgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼnaviy, falsafiy-axloqiy qarashlarining ixcham, loʻnda va obrazli ifodasi maqol deyiladi. Xalq maqollari koʻp asrlik yoʻlni bosib oʻtib, avloddan avlodga, ogʻizdan ogʻizga oʻtish jarayonida sayqallanib, zamon ruhiga moslashib borgan. Buni bir xil maʼnodagi maqolning turli xil shakli yoki ekvivalenti koʻpligi ham aytib turadi.

Buyuk tilshunos olim Mahmud Qoshgʻariy “Devonu lugʻotit turk” asarida turkiycha soʻzlarga izoh berar ekan, oʻz fikrining dalili sifatida turkiylar orasida keng tarqalgan sheʼriy parchalar: xalq qoʻshiqlari, munozaralar, maqollar, matallar kabi adabiy parchalardan keltiradi. Shu asnoda “Devonu lugʻotit turk” qadimgi turkiy xalqlarning xalq ogʻzaki ijodi namunalari saqlanib qolgan ilk yozma manba sifatida qadrlanadi. “Devonu lugʻotit turk”dan keyin maqollarga maxsus eʼtibor bergan adib Muhammad Sharif Gulxaniydir. Afsuski, ayni mana shu holat folklorshunosligimizda maxsus oʻrganilgan emas.

Gulxaniy “Zarbulmasal” asarida oʻz davrining eng aktual masalalarini badiiy ifodalab berdi. Mamlakatning vayronligi “Zarbulmasal” asarida allegorik obrazlarda oʻz ifodasini topgan. Xususan, hayotiy obrazlar, realistik sahnalar, xarakterli portretlar (Yapaloqqush, Boyqush, Shoʻranul, Koʻrqush, Kordon va boshqalar), hajviy boʻyoqlar, falsafiy muhokamalar – bularning hammasi masalaning eng muhim estetik fazilatidir. S.Dolimov oʻrinli yozganidek. Gulxaniy oʻzi yashab turgan davr muammolarini allegorik usulda “Zarbulmasal”da ifodalagan, xalq dardini koʻrsata olgan.

Maʼlumki, “Zarbulmasal”ning asosiy qahramonlari qushlardir. Unda eng yirtqich qushlardan tortib oddiy qushlargacha namoyon boʻladi, baʼzan yoʻl-yoʻlakay vahshiy hayvonlar (maymun, tulki), uy hayvonlari (tuya, boʻtaloq, eshak), hasharotlar (chayon) obrazlari ham asarda koʻzga tashlanadi. Lekin bularning har biri insonlarning xulq-atvorini, qiliqlarini, xarakterini, turmushini ifoda etadi. Shu bilan birga, asarda bir qator kishilarning realistik obrazlari ham gavdalanitirilgan. Zotan, Gulxaniy mehnatkash xalq turmushini yaxshi bilardi. U kambagʻal dehqonlar, kosiblar, chorakorlar, qarollar, goʻlohlar, choʻponlar, katta yer egalari, amaldorlar, toʻquvchilar, olimlar, ruhoniylar va boshqalarning hayotini, xarakterini, ichki olamini diqqat bilan oʻrgandi. Bu kuzatishlar shoirga “Zarbulmasal”da misgar Xolboqi, poʻstindoʻz Yodgor bulotqi, Qoʻchqor soʻfi, Ashur yirtiq qassob, Umar kafishdoʻz, Muhammad xoʻja mufti, Niyozcha ogʻaliq kabi hayotiy shaxslarning satirik obrazlarini yaratish imkonini berdi. Bu obrazlar Yapaloqqush va Boyqush orasidagi voqealar bilan bevosita bogʻlanadi hamda masalning kompozitsiyasini toʻldirish uchun xizmat qiladi¹.

Asarning muhim fazilatlaridan yana biri shundaki, shoir oʻzi toʻplagan maqollardan obrazlar xarakterini ochishda mohirlik bilan foydalanadi. Masalan, Koʻrqush Yapaloqqush bilan suhbat

¹Долимов С. Сўзбоши // Гулханий. Зарбулмасал. Ўқитувчи. – Тошкент, 1972. – 4 б.

qilayotganda suhbatdoshining g‘ayri insoniy xulqqa ega ekanini, qallobligini fosh etar ekan, “Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyilmas” maqolini ishlatadi. Kordon bilan Boyqush suhbatida Boyo‘g‘lining qo‘polligini Kordon: “Yaxshilar topib so‘zlar, yomonlar qopib so‘zlar; it kallasini silasang, tabaqda turmas” – maqollari bilan fosh qilsa, Boyqush ham Kordonning o‘z amaliga bino qo‘yib, o‘zini katta olganidan achchig‘lanib: “So‘zni aytgil uqqang‘a, jonni jong‘a suqqang‘a, aytib so‘zni netarsan, onadin yomon tuqqang‘a”, – deydi. Bu maqollar feodal tabaqasining sirlarini fosh qilishga qaratilgan, ular Qo‘qon xoni Umarxon zamonasidagi yirik feodallarning axloqiy buzuvchiligi, xasisligi, shuhratparastligi, maishatparastligi, xudbinligini ochib tashlashda muhim vosita vazifasini bajargan¹. “Zarbulmasal” shunchaki oddiy bir allegorik asar bo‘lib qolmay, qushlarning xarakteriga, asardagi mavqeyiga mos ravishda ustalik bilan ishlatilgan maqollar va hikmatli so‘zlarga boy bo‘lgan asardir. Asarning ham shakl, ham mazmun, ham badiiy-tasviriy vositalarning qo‘llanishi jihatidan xalq og‘zaki ijodiga, hayotiy-maishiy ertaklarga o‘xshab ketishi uning ko‘zga darhol tashlanuvchi asosiy xususiyatidir. Maqollarni personajlarning xarakteri va dunyoqarashiga mos ravishda ishlatgan. Maqollarning har biri asarni har jihatdan bezaydi, unga turli ottenkalar beradi. Muallif ba‘zi maqollarni to‘la keltiradi, ba‘zilarni personajlar gapi tarkibiga singdirib yuboradi. Gulxaniy o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotda qo‘llanib kelingan saj‘ uslubidan foydalanib, asarning ravon, o‘ynoqi o‘qilishini ta‘min etgan.

“Zarbulmasal”ning Gulxaniy yashab turgan vaqtda ko‘chirilgan nusxasi uchramaydi. “Zarbulmasal” nusxalarining hammasi shoir vafotidan kamida 30-40 yil o‘tib qalamga olingan bo‘lib, til materiallari bo‘yicha nusxalar bir-biridan farq qiladi². “Zarbulmasal”ning hozirga qadar 8 qo‘lyozma nusxasi va o‘ndan ziyod bosma nusxalari borligi aniqlangan.

Bu borada, ayniqsa, N.P.Ostroumov ko‘p xayrli ishlarni amalga oshirgan. U asar qo‘lyozmalarini izlab topib, birinchi marotaba 1890-yilda uning litografik nashrini amalga oshirdi. Aslida keyin nashr etilgan barcha ishlar mana shu nashrga tayangan, deyish mumkin. Shundan keyin Toshkentda asar litografik usulda bir necha marta chop etilgan.

1926-yilda Sadridin Ayniyning “Namunayi adabiyoti tojik” majmuasida Gulxaniy ijodidan namuna berildi. A.Fitratning adabiyotimiz tarixiga oid 1929-yilda yozilgan “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotiga umumiy bir qarash” deb nomlangan maqolasida “Gulxaniy davriga kelib Farg‘ona saroy adabiyotining xalq adabiyotiga ayri qimmat qo‘shganligi ham ko‘rinadur”³, degan fikrni bildirib, buning natijasida “Zarbulmasal yuzaga kelganligini qayd etadi. O‘zbekiston partiya tashkilotining 30-yillardagi rahbari Akmal Ikromov san‘at va adabiyot xodimlari oldiga “eng yaxshi o‘zbek adabiyotini ... muqaddima va izohlar bilan bosib chiqarish”dan iborat jiddiy bir talabni qo‘yar ekan, bu namunali adabiyotga Gulxaniy merosini misol qilib: “Zarbulmasali Gulxaniy” degan kitob bor, bu kitob butunicha maqollardan tuzilganki, bu ajoyib boy o‘zbek tilini xarakterlaydi. Nima uchun bu kitob bosib chiqarilmaydi?!”⁴ deya taassuf bildirgan edi. Shundan keyin Gulxaniy ijodini o‘rganishga kirishildi, maqolalar yaratildi, ilmiy izlanishlar olib borildi. “Zarbulmasal” turli qo‘lyozmalari asosida nashrga berildi. 1945-yilda Olim Sharafuddinov tuzgan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”da “Zarbulmasal”dan parchalar e‘lon qilindi. 1951-yilda esa H.Yoqubov tomonidan asar nashrga tayyorlanib, “Zarbulmasal (Yapaloqqush hikoyasi)” nomi bilan “O‘zbek adabiyoti klassiklari” seriyasida kitobcha holda nashr etildi. Gulxaniydan qolgan adabiy meros “Zarbulmasal va g‘azallar” nomi bilan 1958- va 1960-yillarda chop qilindi va asarning matni shu nashrlar asosida darslik va qo‘llanmalarga kiritildi.

Asarga nisbatan hozirgacha “hikoyat”, “qissa”, “masal” singari nomlar qo‘llanib kelinadi. Zarbulmasalning muqaddima qismida adibning o‘zi ham uni “hikoyat” deb tilga olgan. Shunga asoslanib bo‘lsa kerak, kitobning ayrim nashrlarida “Zarbulmasal” nomi ostidan “Yapaloqqush hikoyasi” degan izoh qo‘shib qo‘yiladi.

¹ Долимов С. Сўзбоши // Гулханий. Зарбулмасал. Ўқитувчи. – Тошкент, 1972. – 6 б.

² Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”нинг илмий танқидий матни: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1997. – 43 б.

³ Фитрат А. XVI асрдан сўнгра ўзбек адабиётига умумий бир қараш // Аланга. 1929. – № 8-9. – 7 б.

⁴ Икромов А. Санъат ва адабиёт тўғрисида. – Тошкент: Узпарнашр, 1935. – 45 б.

Hikoyachilik asosiga qurilganligi jihatidan asar o‘zbekcha badiiy nasriy obidalarning Gulxaniydan avvalgi namunalariga, chunonchi, Rabg‘uziy qissalari va Xoja hikoyatlariga yaqin turadi. Biroq voqeaning boshlanishi, yo‘nalishi, asarning tuzilishi, mazmuni va ifodaning usul va vositalari e‘tibori bilan “Zarbulmasal” badiiy nasrchilikning barcha namunalaridan katta farq qiladi.

Janr xususiyatining murakkabligi, ya‘ni uni na hikoya, na qissa, na masal, na hajviya deb alohida olingan biror adabiy janr qolipiga sig‘dirib bo‘lmasligining o‘zi “Zarbulmasal”ning originallik belgisidir. Asarda bu janr turlarining har biriga xos xususiyatlar, ifoda yo‘llari (nasr, nazm, saj) aralashgan, qorishgan holda tiniq bir umumiy ohang yaratadi

Adabiyot nazariyasiga oid ishlarda “Zarbulmasal”ni “hajviy va yumoristik qissa” deb ta‘rifladilar¹. Bizningcha, qissaning bu belgilari oldidan “majoziy” sifatini qo‘shish kerak. Zarbulmasal – maqsadni majoz yo‘li bilan ifodalashga qaratilgan hikoyatdir. Majoz bo‘lganda ham, oddiy majoz emas, ko‘p qavatli murakkab majoz bor bunda. Odam timsoli o‘rnida qushlarning harakatda bo‘lishi birinchi majoz bo‘lsa, ular tilidan Xolvoqi misgar, Yodgor po‘stindo‘z singari kishilarning, Tuya, Chayon, Sangpo‘sh (Toshbaqa) singari hayvon-hasharot timsollarining har xil naql-rivoyatlar keltirib so‘z yuritishi – ikkinchi majoz, bu timsollar nutqida keltirilgan ifodalarning ko‘chma ma‘nolari – yana bir majoz – majoz ichidagi majozdir². Bu fikrlardan asarning majoziy ekanligiga urg‘u berilganligi anglashiladi. Darhaqiqat, “Zarbulmasal” – majoziy asar.

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari katta hajmdagi masallardan bo‘lib, Yapaloqqush bilan Boyqush orasidagi qudashlik voqeasini ifoda etadi. Hajmining kattaligi, qissa yoki hikoya kabi voqealarning bir-biriga bog‘lanib borishi, shu voqealarga bog‘lanib masallarning va maqollarning berilishi, murakkab syujet chizig‘i va kompozitsiyaga ega bo‘lishi nuqtayi nazaridan Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari boshqa yozuvchilarning masallaridan farq qiladi va ko‘proq “Kalila va Dimna”ga yaqin turadi. S.Dolimov bu fikri bilan “Zarbulmasal”ning didaktik asar ekanligiga e‘tiborimizni qaratmoqda. Undagi pand-nasihati ruhida fikrlar asarning didaktik belgilarini oshirgan.

Gulxaniy “Zarbulmasal” asarida o‘z davrining eng aktual masalalarini badiiy ifodalab berdi. Mamlakatning vayronligi “Zarbulmasal” asarida allegorik obrazlarda o‘z ifodasini topgan. Xususan, hayotiy obrazlar, realistik sahnalar, xarakterli portretlar (Yapaloqqush, Boyqush, Sho‘ranul, Ko‘rqush, Kordon va boshqalar), hajviy bo‘yoqlar, falsafiy muhokamalar – bularning hammasi masalaning eng muhim estetik fazilatidir³. S.Dolimov o‘rinli yozganidek. Gulxaniy o‘zi yashab turgan davr muammolarini allegorik usulda “Zarbulmasal”da ifodalagan, xalq dardini ko‘rsata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гулханий. Зарбулмасал. – Т., 1958. – Б. 67.
2. Валитова А.А. К вопросу о фольклорных мотивах в поэме «Кутадгу билиг» // Сов. Восток. М.: 1958, № 5, с. 88-102.
3. Назарова Х. “Зарбулмасал”нинг баъзи бир лексик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1959. – №2. – Б.66-71.
4. Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1964. – 276 б.
5. Гулханий. Зарбулмасал. – Т.: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 80 б.

¹ Asrorov A.A. O‘zbek va tojik hajviyotida janriy shakllar rang-barangligi (XVIII asr oxiri – XIX asr). Nomzodlik diss. avtoreferati. – Samarqand, 1993. – 16 б.

² Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”нинг илмий танқидий матни: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1997. – 28 б.

³ Долимов С. Сўзбоши // Гулханий. Зарбулмасал. Ўқитувчи. – Тошкент, 1972. – 4 б.

ANDIJON BOLALAR FOLKLORI VA TURK BOLALAR FOLKLORIDAGI O'XSHASHLIKLAR

Mahamadjonova Odina Xamidullo qizi
Andijon davlat universiteti doktranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Andijon bolalar folklori na'munalari tahlilga tortilgan bo'lib, huddi shunday o'yinlar turk xalq bolalar folklorida ham mavjudligi isbotlangan. Bolalarga xos beg'uborlik ufurib turgan ushbu o'yinlar ularni hayotga tayyorlovchi bir vosita sifatida qaralagan.*

***Kalit so'zlar.** Arqon, sakrash, to'ptosh, topishmoq, makon, predmet.*

***Annotation.** This article analyzes examples of Andijan children's folklore, and proves that similar games exist in Turkish children's folklore. These games, which are full of children's innocence, were seen as a means of preparing them for life.*

***Keywords.** Rope, jump, ball, puzzle, space, object.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются образцы андижанского детского фольклора и доказывается, что подобные игры существуют в турецком детском фольклоре. Эти игры, полные детской невинности, рассматривались как средство подготовки их к жизни.*

***Ключевые слова.** Веревка, прыжок, мяч, головоломка, пространство, предмет.*

Bolalar folklori –bu bolalarning ichki dunyosining bir qismi hisoblanadi. Bolalar folklorini o'rganish, bolalar dunyosini o'rganish demakdir .Bunday tadqiqotlar haqida eshitgan insonlar : “Bolalar folklori qiziq ,lekin u mavjudmi?”-degan savolni berishdi.

Bolalar folklori , umuman olganda, folklor oddiy ko'ringani uchun nazardan chetda qoladigan murakkablik deb aytish mumkin. Bolaning hayoti folklor olamida aks etadi. Folklor ham huddi tosh qoldiqlari singari intellektual o'tmishning qoldig'i deyish mumkin. Ibtidoiy odamlarning omon qolish uchun qilgan xatti-harakatlari bolalar folklorida saqlanib qolgan. Bolaning asosiy vazi-fasi o'z ijtimoiy dunyosini tartibga keltirishdir. Bola buni qanday uddalaydi? U jonsiz narsalarga shaxs sifatida munosabatda bo'ladi va shunday qilib, u o'z ijtimoiy faoliyatini boshlaydi, tartibga keltiradi. Butun olamni shaxsiy tasavvuri orqali jonlantirib tajriba hosil qiladi. Bolalar o'yinlari eng qadimiy, tarixiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ular kattalar qiladigan jiddiy narsalarni o'zlariga xos tarzda o'ynashadi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari, radio, internet insonlar hayotida kirib kelib o'z o'rnini egalladi. Bu texnologiyalar bizga har sohada beminnat xizmat ko'rsatmoqda. Tug'iliboq dunyodagi barcha bolalar raqamli muhitga duchor bo'lmoqdalar. Bu holatning ikki tomoni borki, buni aytib o'tmaslikning imkoni yo'q. Birinchisi :ular kompyuter , internet tarqmoqlari va barcha texnologik jihozlardan foydalanishda hech qanday qiyinchilikka duchoq bo'lmayapti. Masalaning ikkinchi tomoni esa ular oddiy harakatlarni bajarishga qiynalmoqda.Tengdoshlari bilan turli o'yinlarni o'ynab ular bilan muloqot qilgan bolalarga qaraganda ancha zaif bo'lib qolmoqdalar. Bolalar turli xil harakatli o'yinlar o'ynaganda ularning aqliy va jismoniy rivojlanishi muqofiqlashadi. Xalq o'yinlari bolalar elektron muhitdan ko'ra ko'proq foydali odat va ko'nikmalar shakllantiradi, shaxs sifatida kamol topishiga, o'z hayliy dunyosini kengaytirishiga yordam beradi. Jamoa bo'lib harakat qilish, ahlillik kabi hislatlar shakllanadi, maqsad qo'yish ,unga erishish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Tarixning ilk kunlaridan to hozirgi kunga qadar butun insoniyat bolaligida o'yin o'ynagan va shu kunlarga kelib xalq o'yinlarini o'ynaydigan bolalar kamayib qolayotganday tuyulmoqda . Ushbu o'yinlar ularni hayotga tayyorlash bilan birga ularga bolalik quvonchini baxsh etadi . Bolalarning o'ziga xos hayol olami bor bo'lib, u

Davronova Jasmina Sanjar qizi. KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOT O'QISHGA QIZIQTIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI	83
4–SEKTOR: BOLALARDA NUTQIY KOMPETENSIYALYARNI RIVOJLANTIRISHDA FOLKLORNING O'RNI	86
Холиқов Ихтиёр Розикович. БОЛАЛАРДА НУТҚИЙ КОМПЕТЕНЦИЈАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ФОЛЬКЛОРНИНГ ЎРНИ	86
Тиллабаева Феруза Абдулазизовна. ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ НА ОСНОВЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ.....	88
Navruzova Muyassar Gaybullaevna. ON LEXICAL CHARACTERISTICS OF EUPHEMISMS AS MEDICAL LINGUISTIC UNITS	92
Ozodova Madina Hamza qizi. O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA FOLKLORNING O'RNI ..	96
5–SEKTOR: O'ZBEK VA QARDOSH XALQLAR BOLALAR FOLKLORINING SOLISHTIRMA TAHLILI	99
Авезов Собит Сафарович. БУХОРО ФОЛЬКЛОРИ БОЛАЛАР ЎЙИНИ БАДИИЯТИ ВА КОМПОЗИЦИЯСИ	99
Джамила Темирова. ТИПЫ НЕАНТАГОНИСТИЧЕСКИХ ИГР В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ДЕТСКОМ ИГРОВОМ ФОЛЬКЛОРЕ	103
6–SEKTOR: XALQ OG'ZAKI IJODINI TO'PLASH VA NASHR ETISH MASALALARI	107
Бекбергенова Абадан Утеповна. «ЕР ЗИЙЎАР» ДЭСТАНЫНДА ГИПЕРБОЛАЛАРДЫҢ ӨХМІЙЕТИ	107
Sabirova Nasiba Ergashevna. XORAZM DOSTONCHILIGI RIVOJIDA BAXSHICHILIK AN'ANALARINING O'RNI	110
Sharipova Laylo Frunzeyevna, Salohiddinova Lobar. ADABIY TOPISHMOQ.....	114
Narzullayeva Dilfuza Saitovna. O'ZBEK FOLKLORIDA MOMO KULTI	116
Qodirova Saodat Abduraximovna. “ZARBULMASAL” ASARIDAGI MAQOLLAR TIZIMI.....	120
Mahamadjonova Odina Xamidullo qizi. ANDIJON BOLALAR FOLKLORI VA TURK BOLALAR FOLKLORIDAGI O'XSHASHLIKLAR.....	124
Djurakulova Gulnoza Shavkatovna. JANUBIY O'ZBEKISTON DOSTONCHILIK MAKTABIDA QO'LLANILUVCHI O'XSHATISHLAR	127
Sayfutdinova Dilbar Tojiddin qizi. RAQS SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	130